

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/25.08.2021.FIL.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ESEMURATOVA ULZADA XOJAEVNA**

**QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «DAVLATYORBEK» (GENEZISI,  
TIPOLOGIYASI VA POETIKASI)**

**10.00.08 – Folklorshunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus - 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Esemuratova Ulzada Hojaevna**

Qoraqalpoq xalq dostoni «Davlatyorbek» (genezisi, tipologiyasi va poetikasi).... 3

**Есемуратова Улзада Хожаевна**

Каракалпакский народный эпос «Даулетиярбек» (генезис, типология и поэтика)..... 25

**Esemuratova Ulzada Khojaevna**

Karakalpak folk epic «Davlatyorbek» (genesis, typology and poetics)..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/25.08.2021.FIL. 137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ESEMURATOVA ULZADA XOJAEVNA**

**QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «DAVLATYORBEK» (GENEZISI,  
TIPOLOGIYASI VA POETIKASI)**

**10.00.08 – Folklorshunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus - 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD.FIL.006 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda: o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.aknuk.uz.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Palimbetov Kamalbay Sarsenbaevich  
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Baxadirova Sarigul  
filologiya fanlari doktori, professor

Nizamatdinov Jenis Minajattidinovich  
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi muassasa:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «16» \_\_\_\_\_ soat 14<sup>00</sup> daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47; faks: (99861) 222-85-47; e-mail: kk\_gumanitar@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin. (\_\_\_\_14\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «04» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2025-yil «01» \_\_\_\_\_ daqi \_\_\_\_\_ -raqamli reestr bayonnomasi).



*[Signature]*  
A.I.Alniyazov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

*[Signature]*  
A.M.Bekimbetov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha filosofiya  
doktori (PhD), ilmiy xodim

*[Signature]*  
I.A.Keruenov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari  
doktori, professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mazmuni)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodi namunalarning genezisi va tipologiyasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy kontseptsiyalar va yangi tendensiyalar shakllangani ma‘lum. Xususan, folklor namunalari, genezisi, sujet-kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi va yetakchi motivlar va tipologiyasi, badiiy-estetik xususiyatlarini yangi tadqiqot mezonlari asosida o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Folklor asarlari, har bir millatning dunyoda borligini, hayotga munosabatini, milliy fikrlash tarzini ifodalovchi, inson ichki dunyosiga, sirli ruhiy olamiga payvasta bo‘lgan xalq og‘zaki ijodiyotini tadqiq etish milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e‘zozlashni, uni bosh masala sifatida e‘tirof etishni yaqqol tasdiqlab turadi.

Dunyo folklorshunosligida eposlar nazariyasida yangi yondashuvlar shakllandi va epik janrning genezisi va tipologiyasiga oid ilmiy nazariy fikrlar rivojlandi. Eposning genetik asoslarida tarixiy xususiyatga ega bo‘lgan sujetlarning o‘rni haqida ilmiy qarashlar va eposlar sujet tuzilishida tarixiylikni aniqlash tendensiyasi kabi tadqiqot yo‘nalishlari umumiy epik janrlarning yetakchiligini ko‘rsatib beradi. Epos nazariyasiga doir qarashlarning yangilanishi, epik sujetlarning rivoji natijasida turli versiya va variantlarning shakllanish tamoyillarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni yuzaga keltirdi.

Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida ham eposlar alohida o‘rin tutadi. Eposlar murakkab janr bo‘lib, undagi voqealarning auditoriyaga yetkazilishi bir qancha omillarni o‘zida jamlaydi. Chunki dostonlarda navo, qo‘shiq va badiiy so‘zning birgalikda uyg‘unlashishi, dostonlardagi badiiy-estetik ta‘sirchanlikni yuqori darajaga ko‘taradi va tinglovchilar doirasini kengaytiradi. «*Dostonchilik va baxshichilik – milliy g‘ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim*»<sup>1</sup>. Bugungi kunda yurtimizda ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida eposlarning milliy, ma‘naviy meros tizimidagi ahamiyatiga katta e‘tibor qaratilib, ularni o‘rganish bo‘yicha yangi ilmiy yondashuvlar va tamoyillarga asos solinmoqda. «Davlatyorbek» dostoni ham qoraqalpoq xalqining tarixiy yorqin ko‘rinishlaridan birini aks ettirishi bilan e‘tiborga loyiqdir. Qo‘ng‘irot hududida yaratilgan bu doston tarixiy dostonlardan biri bo‘lib, unda vatanparvarlik, xalqlar do‘stligi, mardlik, adolat, diniy e‘tiqod, yaxshilik va saxovat kabi yuksak fazilatlar targ‘ib qilinishi bilan katta ahamiyatga ega.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-sonli “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Истикболли лойиҳалар халқимиз фаровонлигига хизмат қилмоқда // Халқ сўзи. – Тошкент, 2018.

o'tkazish to'g'risida"gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-sonli "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-son "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turkiy xalqlar folklorshunosligida qahramonlik dostonlarning janriy evolyutsiyasi, genezisi va tipologiyasi, obrazlar tizimi masalalari bo'yicha o'zbek<sup>2</sup>, qozoq<sup>3</sup>, qirg'iz<sup>4</sup> va turkman<sup>5</sup>, shuningdek, yoqut, oltoy, chechen, ingush, tuva xalqlari eposlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari qahramonlik eposlar haqida muayyan ilmiy xulosalarga kelishga asos yaratdi.

Qoraqalpoq xalqining «Davlatyorbek» dostoni faqat qoraqalpoqlar orasidagina emas, balki o'zbek va turkman xalqlari orasida keng tarqalgan tarixiy

<sup>2</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – С. 6-495; Зарифов Х.Т. Основные мотивы эпоса «Алпамыш» // Об эпосе «Алпамыш». – Тошкент: АН УзССР, 1959. – С. 8, 9, 13; Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 170; Сайдов М. Ўзбек халқ дostonчилигида бадий маҳорат. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 144–178; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Дoston, унинг турлари ва тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 9–61; Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 97-148; Жуманазаров У. Тарих, афсона ва дин. – Тошкент: Фан, 1990; Рахмонов Н.А. Орхон-Енисейские памятники и тюркские эпосы: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1991. – Б. 38; Эшонкул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б.169; Имомов К. «Алпомиш»да кураш мотиви // Ўзбек тили ва адаби ёти. –Тошкент: Фан, 2000. – Б. 28–29; Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001; Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 75–96; Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртақ. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014. – Б. 308; Турдимов Ш. "Тўрўғли" дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 240; Ўша муаллиф: Эпос ва этнос. – Тошкент: Фан, 2012; Сариев С. Хоразм «Тўрўғли» дostonларининг кулўзма нухалари. – Тошкент: Мухаррир, 2013.

<sup>3</sup> Марғулан А. Шокан және Манас. – Алматы: Жазушы, 1971. – Б. 164; Садыков Т. Глубокие корни. – Алма-Ата: Жазушы, 1975. – С. 3-156; Қоңыратбаев Ә. Қазақ эпосы және түркология. – Алматы: Ғылым, 1978. – Б. 180; Бердібаев Р. Қазақ эпосы. – Алма-Ата: Ғылым, 1982. – Б. 228.

<sup>4</sup> Қыдырбаева Р.З. Генезис. Эпоса «Манас». – Фрунзе: Илим, 1980. – С. 290; Жайнакова А. «Семетей» эпосунун тарыхый-генеологиялык негизи. – Фрунзе: Илим, 1982. – Б. 3–175; Садыков А. героические мотивы в эпосе «Манас». – Фрунзе: Илим, 1982. – Б. 136; Мамедиязов Б. О поэтике эпоса «Горуглы». – Ашгабад: Ылым, 1984. – С. 115.

<sup>5</sup> Боровков А.К. Вопросы изучения тюркоязычного эпоса народов Средней Азии // Вопросы изучения эпоса народов СССР. – Москва: 1958. – С. 66–391; Гребнев Л.В. Тувинский героический эпос. Опыт историко-этнографического анализа. – Москва: Восточная литература, 1960. – С. 70; Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса. Ранние формы и архаические памятники. – М.: ИВЛ, 1963. – С. 462; Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы на стыке Востока и Запада. – Москва: Наука, 1965. – С. 83-123; Далгат У.Б. Героический эпос чеченцев и ингушей. – Москва: Наука, 1972. – С. 466; Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Ленинград: Наука, 1974. – С. 727; Алексеев Н.А. Традиционные религиозные верования у якутов в XIX-начале XX вв. – Новосибирск: Наука, 1975. – С. 119; Короглы Г.Х. Огузский героический эпос. – Москва: Наука, 1976. – С. 240; Суразаков С.С. Алтайский героический эпос. – Москва: Наука, 1985. – С. 256; и т.д.

doston bo‘lib, bu asarning bir nechta milliy variantlari mavjud bo‘lishiga qaramay, bugungi kunga qadar qoraqalpoq folklorshunosligida maxsus o‘rganilmagan.

Qoraqalpoq xalq dostoni «Davlatyorbek» ilk bor 1930-yili qo‘ng‘irotlik Qorajon baxshi Qobulovdan folklor to‘plovchilari S.Mavlenov va Sh.Xojaniyazovlar tomonidan yozib olingan. 1960-yillari Qo‘ng‘irotida Sultonov Yeshmurat degan kishining uyidan dostonning arab alifbosidagi qo‘lyozma nusxasi topilgan<sup>6</sup>. 1969-yili qo‘ng‘irotlik Norboy baxshi Ko‘shekenovdan yozib olingan variant «Amudaryo» jurnalida chop etilgan<sup>7</sup>. 1995-yili dostonning Q.Maqsatov va R.Maqsatova tomonidan nashrga tayyorlangan to‘liq varianti chop etilgan<sup>8</sup>. Norboy baxshi Ko‘shekenovdan yozib olingan ushbu variant matni «Qoraqalpoq folklori» 100 jildligiga kiritilgan. Qoraqalpoq xalqining «Davlatyorbek» dostoni asosan eposshunos olim Q.Maqsatov tomonidan o‘rganilgan<sup>9</sup>.

Bundan tashqari, qo‘ng‘irotlik tarixchi, mahalliy o‘lkashunos J.Shamuratovning Davlatyorbekning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maqolalari va kitobi chop etilgan<sup>10</sup>.

«Davlatyorbek» dostonining o‘zbekcha versiyasi S.Ro‘zimboyev va Sh.Rahimova tomonidan nashrga tayyorlangan hamda «Oshiqnoma» to‘plamidagi Xorazm dostonlarining 7-kitobida chop etilgan<sup>11</sup>. Professor S.Ro‘zimboyev «Davlatyorbek» dostonining o‘zbekcha versiyasiga xos xususiyatlar, sujet tuzilishi, motivlar tarkibi va obrazlar tahliliga oid maqolalar chop etgan<sup>12</sup>.

Sh. Raximova «Davlatyorbek» dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi» mavzusida filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi<sup>13</sup>.

«Davlatyorbek» dostonining turkman tilidagi varianti bir necha marta chop etilgan. 1943-yili N. Xo‘jayev bu asarning bir nechta bo‘limini bir kitobga jamlab nashrga tayyorlagan bo‘lsa, 1971-1978-yillarda dostonning to‘liq matni chop etilgan<sup>14</sup>.

<sup>6</sup> Очерки по истории каракалпакского фольклора. – Тошкент: Фан, 1977. – С. 91.

<sup>7</sup> Дəўлетярбек: (дастан) // Амударё. – Нукус, 1970. – № 7.

<sup>8</sup> Дəўлетярбек: (дастан) / [Баспаға таярлаганлар Қ.Мақсетов, Р.Мақсетова]. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1995. – Б. 6-59.

<sup>9</sup> Мақсетов Қ. Дəулетярбек / Очерки по истории каракалпакского фольклора. – Ташкент: Фан, 1977. – С.90-93; О‘sha muallif. Қарақалпақ фольклористикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1989; О‘sha muallif. Дəстанлар, жыраўлар, бақсылар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992.

<sup>10</sup> Шамуратов Ж. Дəўлетярбек // Əмиўдərья. – Нөкис, 2001. - №2. - Б. 84-86; О‘sha muallif. Дəўлетярбек. – Маңғыт, 2023. – 43 б.

<sup>11</sup> “Давлатёрбек” достони (нашрга тайёрловчи С.Рузимбоев ва Ш.Рахимова) / Ошиқнома. Хоразм достонлари. 7-китоб. – Урганч: Хоразм, 2019. – Б. 12-128.

<sup>12</sup> Рузимбоев С. Халқ дилидан жой олган достонлар / Ошиқнома. Хоразм достонлари. 7-китоб. – Урганч: Хоразм, 2014. – Б. 3-7; О‘sha muallif. “Давлатёрбек” достони ҳақида // Тафаккур зиёси. Т.ХХХ. –Урганч: Хоразм, 2014. – Б. 3-8.

<sup>13</sup> Рахимова Ш. «Давлатёрбек» достонининг тарихий асослари, типологияси ва поэтикаси: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. – Тошкент, 2020. – 158 б.

<sup>14</sup> Магрупы. Дəвлетяр: дессандан бөлөклөр / Чапа тайярлан Н. Хожаев. – Ашхабад, ТДН, 1943. – 44 б.; Гурбаната Магрупи. Дəвлетяр. – Ашхабад, 1971. – 119 с.: Гурбаналы Магрупы. Дəвлетяр: дессан (нашрга тайёрловчи: Қ.Дурдыев). – Ашгабат: Туркменистан, 1978. – 180 б.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida asosiy tadqiqot mavzusi sifatida olib borilayotgan «Qoraqalpoq xalq og'zaki badiiy ijodiyoti va qoraqalpoq adabiyoti tarixi» deb nomlangan ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qoraqalpoq xalq dostoni «Davlatyorbek»ning yaratilishi va shakllanish tarixi, sujet tuzilishi, obrazlar tizimi, motivlar genezisi, qoraqalpoqcha variantlarning o'xshash va farqli jihatlari, baxshilar repertuaridagi o'rni, shuningdek, o'zbek va turkman versiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

«Davlatyorbek» dostonining o'rganilish tarixini aniqlash;  
dostonning milliy variantlaridagi o'xshash va farqli xususiyatlarini ochib berish;

«Davlatyorbek» dostonining qoraqalpoq versiyasiga aloqador ma'lumotlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish;

doston sujetida an'anaviy motivlar tizimining mazmun va konstruktiv roli orqali dostonning genezisini yoritish;

eposning shakllanishi va tarqalishida baxshi, qissaxonlarning ijodini ko'rsatish;

dostonning obrazlar tizimi, qo'shiq tuzilishi va badiiy tilini tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyektini** qoraqalpoq xalq dostoni «Davlatyorbek»ning O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi kutubxonasining qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan variantlari, 1995-yil nashr qilingan «Davlatyorbek» dostoni, «Qoraqalpoq folklori» yuz jildligining XIX jildida chop qilingan Norboy baxshi varianti (2010) va qardosh o'zbek va turkman folkloridagi versiyalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmeti** «Davlatyorbek» dostoni qoraqalpoq versiyasi va variantlarining janriy o'ziga xosligi, milliy epik an'anada tutgan o'rni, kompozitsion tuzilishi va obrazlar tarkibining tipologiyasi, genezisi va badiiyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, qiyosiy-tipologik va badiiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“Davlatyorbek” dostonining qoraqalpoq, o'zbek va turkman xalqlarining epik merosidagi variantlari qiyosiy-tahliliy asosda o'rganilib, uning genezisi, ijro an'analari va tarqalish tarixiga doir yangi belgilari ochilgan;

Dostonning qoraqalpoqcha varianti tahlilida uning Xorazm va turkman versiyalari bilan uslub, syujet va obrazlar tizimidagi umumiylik va farqlar ilmiy jihatdan aniqlanib, XVIII asr tarixiy voqealarining doston shakllanishiga bo'lgan ta'siri, shuningdek, qahramonlik eposi doirasidagi milliy o'ziga xosliklar ilk bor yoritilgan;

Badiiy tasvir vositalari, nazm va nasrning uyg'unligi, dostonning poetik tuzilishidagi o'ziga xos jihatlar, ijrochining akterlik mahorati, musiqiy ifoda va

badiiy ijro shakllari ilmiy asosda tahlil etilib, ijrochilik an'alariga oid yangi kashfiyotlar ilgari surilgan;

Dostonning shakllanishida Orolbo'yi epik an'analari va turli dostonlarning syujet tizimi bilan bog'liqliklari hamda Davlatyorbekning mualliflik qo'shiqlari asosida yuzaga kelgani ilmiy jihatdan asoslanib, Qo'ng'irotda, Xorazm va Turkmaniston hududlarida keng tarqalish jarayonining sabablari birinchi marta ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: «Davlatyorbek» dostoni bo'yicha tadqiqotlarga tavsif berilgan va qoraqalpoq xalq dostoni sifatida eposni o'rganish zarurligi ko'rsatib berilgan;

«Davlatyorbek» dostoni dastlab Davlatyorbekning mualliflik qo'shiqlari asosida yaratilgani, keyinchalik XVIII asrda Qo'ng'irotda baxshilar ijodi bilan yuzaga kelgani, keyinchalik shu hududda ko'chirilgani va uning nusxalari Xorazmda, turkmanlar orasida keng tarqalgani isbotlangan;

dostonning poetikasidagi nasriy va she'riy bayon shakllarining badiiy funksiyalari tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuvlar va usullar, hal qilinishi lozim bo'lgan masalaning aniq qo'yilishi, «Davlatyorbek» dostonining matnini qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik tahlil, shuningdek, nazariy fikr va takliflarning amaliyotda keng qo'llanilishi, erishilgan natijalar tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qoraqalpoq qahramonlik dostoni «Davlatyorbek»ning genezisi, tipologiyasi va poetikasi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy yechimlar va xulosalar, qoraqalpoq xalq eposlari bo'yicha bildirilgan ilmiy-nazariy fikrlar turkiy xalqlarning xalq og'zaki epik meroslarini qiyosiy-tarixiy, tarixiy-tipologik, tarixiy-genetik asosda o'rganishda, shuningdek, jirov-baxshilar, qissaxonlarning ijodiy o'ziga xosliklarini ochib berishda ma'lum darajada nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarida qiyosiy adabiyotshunoslik va qoraqalpoq folklori fanlaridan ma'ruzalar o'qish, bu yo'nalishlarda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, qoraqalpoq dostonlari mavzusida maxsus kurslar tashkil qilish, xalq dostonlarining ilmiy-akademik, ommabop va maktablar uchun mo'ljallangan nashrlarini tayyorlashda manba vazifasini bajarishi bilan belgilanadi. Shuningdek, talabalarning kurs va diplom ishlarini bajarishda qo'shimcha materiallar sifatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Davlatyorbek" dostonining qoraqalpoq, o'zbek va turkman xalqlarining epik merosidagi variantlari qiyosiy-tahliliy asosda o'rganilib, uning genezisi, ijro an'analari va tarqalish tarixiga doir yangi belgilari va badiiy tasvir vositalari, nazm va nasrning uyg'unligi, dostonning poetik tuzilishidagi o'ziga xos jihatlar, ijrochining akterlik mahorati, musiqiy ifoda va badiiy ijro shakllari ilmiy asosda tahlil etilib, ijrochilik an'alariga oid yangi kashfiyotlarga oid ilmiy-nazariy xulosalardan O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan "Qoraqalpoq og'zaki prozasi (janrlar

tuzilishi, genezisi, obrazlar tizimi, sujet va motivlari, poetikasi)” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi 2024-yil 26-iyundagi 247/1-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada «Davlatyorbek» dostoni qoraqalpoq versiyasining obrazlar tizimi shakllanish tarixi va badiiy evolyutsiyasiga oid yangi nazariy fikrlar ishlab chiqilgan;

Dostonning qoraqalpoqcha varianti tahlilida uning Xorazm va turkman versiyalari bilan uslub, sujet va obrazlar tizimidagi umumiylik va farqlar ilmiy jihatdan aniqlanib, XVIII asr tarixiy voqealarining doston shakllanishiga bo‘lgan ta’siri, shuningdek, qahramonlik eposi doirasidagi milliy o‘ziga xosliklar ilk bor yoritilganligiga oid ilmiy-nazariy fikrlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining «Ulli ziban» dasturi, «Miyras» kabi eshittirishlarida foydalanildi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2024-yil 4-apreldagi 05-22/178-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada «Davlatyorbek» dostonining qoraqalpoq, o‘zbek va turkman versiyalarining qiyosiy-tarixiy tahlili natijasida ushbu asarning dastlabki varianti Qo‘ng‘irot mintaqasida yaratilgani e‘lon qilindi.

Dostonning shakllanishida Orolbo‘yi epik an‘analari va turli dostonlarning sujet tizimi bilan bog‘liqliklari hamda Davlatyorbekning mualliflik qo‘shiq-lari asosida yuzaga kelgani ilmiy jihatdan asoslanib, Qo‘ng‘irot, Xorazm va Turkmaniston hududlarida keng tarqalish jarayonining sabablari birinchi marta ochib berilganligiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023-yilga mo‘ljallangan ish rejalarining bir qator bandlarining bajarilishini ta‘minlashda, jumladan «Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalini o‘tkazish haqida»gi o‘zbek va qoraqalpoq milliy baxshichilik va dostonchilik san‘atining nodir namunalarini saqlash va rivojlantirish, uni keng targ‘ib qilish vazifalarini bajarishda foydalanildi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi madaniyat vazirligi 2024-yil 27-martdagi 2-04/722-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada muallifning ilmiy ishidagi yangiliklar o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida o‘tkazilayotgan ma‘naviyat darslarida, musiqa fanidan talabalar uchun o‘tkazilayotgan ma‘ruzalar sifatini oshirishda, o‘quvchi-yoshlarning ma‘naviy-axloqiy fozilatlarini shakllantirishda, yoshlarni vatanparvarlik, milliy g‘urur ruhida tarbiyalashda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish kabi ta‘lim jarayonlariga kiritildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ilmiy-amaliy anjumanlarda, shundan 5 xalqaro va 2 respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ilmiy ish, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop ettirish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 maqola, jumladan, xorijiy jurnallarda 2 maqola, respublika jurnallarda 7 maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 132 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Davlatyorbek» dostonining genezisi, to'planishi va tadqiq qilinishi** deb nomlanadi. Dissertatsiyaning birinchi bobi ikki fasldan iborat bo'lib, birinchi faslda **«Doston variantlarining yozib olinishi va tadqiqi»** haqida so'z yuritiladi.

«Davlatyorbek» dostoni – qoraqalpoq xalqining, shuningdek, o'zbek va turkman xalqlarining epik meroslari orasida o'rganilgan dostonlardan biridir. Doston XX asrning 20-yillariga qadar xalq orasida keng tanilgan bo'lib, baxshilar va qissaxonlar tomonidan sevib ijro etilgan. Ushbu doston o'zining yaratilishi jihatidan kenja dostonlar qatoriga kirsam ham, bizgacha uning bir qancha variantlari yetib kelgan. O'z vaqtida xalq orasidan og'zaki va qo'lyozma nusxalar yig'ib olinmay qolgan namunalari ko'p bo'lgan.

Tarixiy shaxs Davlatyorbek bilan dostonidagi uning epik obrazlari o'rtasidagi munosabat va aloqalar haqidagi tarixiy dalillar yoki ilmiy-nazariy asoslangan fikrlar faqat bir necha taxminlardan iborat bo'lib, aniq faktlarga tayanadigan ilmiy dalillar aytilmagan.

Norboy baxshi Koshekenovdan 1969-yili Q.Maqsatov tomonidan yozib olingan ushbu variantda matn so'z va qo'shiq aralash berilgan. Dostonning mazkur varianti «Amudaryo» jurnalining 1970-yil 7-sonida nashr etilgan<sup>15</sup>. 1995-yili Q.Maqsatov R.Maqsatova bilan birgalikda kitob qilib nashr etdi<sup>16</sup>. Qo'ng'iroq shevasiga xos bo'lgan dostonning qo'lyozma va jurnal variantlari taqqoslanib, matnshunoslik nuqtayi nazaridan asl holiga qaytarilib, 2010-yili Qoraqalpoq folklori ko'p jildligining 19-jildida qayta nashr qilindi<sup>17</sup>. Ushbu variant eng to'liq klassik variant hisoblanadi.

Q.Ibrayimov tomonidan (Inv. №175878) Norboy Koshekenov variantining magnit tasmasidan yozib olingan variantining mazmuni ham shunday. Biroq, unda Davlatyorning zindonga tushib qolgan voqeasigacha ko'rsatilgan, xolos<sup>18</sup>.

1960-yillarda Qo'ng'iroq tumanida o'tkazilgan folklor ekspeditsiyasi davomida o'sha paytda odamlarning qo'lida «Davlatyorbek» dostonining to'rt-besh qo'lyozmasi saqlanayotgani, shuningdek, Qoraqalpog'iston hududida dostonning og'zaki ijrochilari ham ko'p bo'lganligi aniqlangan<sup>19</sup>.

<sup>15</sup> «Дәўлетиярбек» (дэстан) // Эмиўдэрья. – Нөкис, 1970. - №7.

<sup>16</sup> «Дәўлетиярбек» (дэстан). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1995.

<sup>17</sup> «Дәўлетиярбек» (Нарбай бақсы Көшекенов варианты). Қарақалпақ фольклоры. Көптомлық. 19-т. – Нөкис: Илим, 2010.

<sup>18</sup> ӨзИА Қарақалпақстан филиалының кітапханасы қолжазбалар қоры. Инв. №175878

<sup>19</sup> Мақсетов Қ. Дәўлетиярбек // Эмиўдэрья. – Нөкис, 1970. - №7. – Б. 32.

«Davlatyorbek» dostonining qoraqalpoqcha varianti hozirgi kunda ham baxshilarning sevib ijro etadigan dostonlaridan biri sanaladi.

Qoraqalpoq folkloridagi «Davlatyorbek» dostoni epik tadqiqotchi Q.Maqsatov tomonidan o'rganilgan va uning bir nechta ilmiy maqolalarida bir-birini to'ldiruvchi ma'lumotlar keltirilgan<sup>20</sup>. Tarixiy shaxs Davlatyorbekning shoirlik qobiliyati bo'yicha ham aniq ma'lumotlar mavjud. Masalan, Qo'ng'iro't tumanida yashovchi bilimdon nuroniy Jabbarbergen Shamuratov «Amu tongi» gazetasida Davlatyorbek haqidagi keng maqolasini hamda uning «Abulg'ozii», «Turkman yurti» qo'shiqlarini, «Davlatyorbek» atamasi bilan «Amudaryo» jurnalida 2001-yil 2-sonida chop etdi.<sup>21</sup> Shuningdek, J.Shamuratov qoraqalpoq tarixiga va og'zaki adabiyotiga qiziqqan qo'ng'iro'tlik O.Embergenov bilan hamkorlikda yozgan «Qo'ng'iro't» kitobida tarixiy shaxs Davlatyorbek haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi<sup>22</sup>. Shunday qilib, J.Shamuratov o'z izlanishini davom ettirib, oldingi yillarda matbuotda chop etilgan maqolalarini jamlab, qo'shimcha tarzda 2023-yil «Davlatyorbek» ilmiy-biografik qissasini nashr etdi.

«Davlatyorbek» dostonining o'zbek versiyasi S.Ro'zimboyev va «Davlatyorbek» dostoni bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan Sh.Rahimovalar tomonidan «Oshiqnoma» (Xorazm dostonlari) to'plamining 7-kitobida chop etildi<sup>23</sup>. Ushbu dostonning o'ziga xos xususiyatlari, sujet tuzilishi, motivlar tarkibi va obrazlar tahlili haqidagi maqolalar S.Ro'zimboyev tomonidan yozilgan<sup>24</sup>.

Dostonning turkmancha versiyasi ilk bor XIX asrda Rossiyada I.N.Berezin tomonidan tayyorlangan «Turk xrestomatiyasi»da «Dovletiyar» nomi bilan kiritilgan. Ushbu dostonning ikkita she'ri Britaniya muzeyiga ham taqdim etilgan. A.N.Samoylovich «O'rta Osiyo – turkiy adabiyoti bo'yicha materiallar»da Davlatyorni turkman shoirlaridan biri sifatida tavsiflaydi<sup>25</sup>. Akademik A.E.Krimskiy «Granat» nomli entsiklopediya lug'atida turkman adabiyoti bo'yicha maqolasida «Dovletiyorbek» nomini ham tilga olgan<sup>26</sup>.

Dostonning turkman tilidagi versiyasi («Döwletiyar»)ning ba'zi parchalari dastlab 1943-yili N. Xo'jayev tomonidan tayyorlanib, Ashxabadda nashr etilgan. 1971- va 1978-yillarda dostonning to'liq matni nashr qilingan. Biroq, doston turkman shoiri Qurbanali Magrupi ijro etgan asar sifatida e'lon

<sup>20</sup> Қараң: Мақсетов Қ. Дәўлетиярбек // Әмиўдәрья. - Нөкис, 1970. - №7. - Б. 32-33; Мақсетов Қ., Тәжимуратов Ә. Қарақалпақ фольклоры. - Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. - Б. 301; Мақсетов Қ. Дәстанлар. Жыраўлар. Бақсылары. - Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. - Б. 292-294; О'sha muallif. «Дәўлетиярбек» (дәстан). - Нөкис: Қарақалпақстан, 1995; О'sha muallif. Қарақалпақ халқының көркем аўызеки дәретпелери. - Нөкис: Билим, 1996. - Б. 315-317; Мақсетов Қ., Мақсетова Р. «Дәўлетиярбек» дәстанын айтқан бақсы // Еркин Қарақалпақстан. 25-май. - Нөкис, 2000. - №62 (17344).

<sup>21</sup> Шамуратов Ж. Дәўлетиярбек // Әмиўдәрья. - Нөкис, 2001. - №2. - Б. 84-86.

<sup>22</sup> Ембергенов Ә., Шамуратов Ж. Қоңырат. - Нөкис: Қарақалпақстан, 2010. - Б. 58-60.

<sup>23</sup> «Ошиқнома». Хоразм дostonлари. 7-китоб. - Урганч: УрДУ, 2018. - Б. 12-128.

<sup>24</sup> Рўзимбоев С. Халқ дилидан жой олған дostonлар / Ошиқнома. Хоразм дostonлари. 7-китоб. - Урганч: Хоразм, 2014. - Б. 3-7; О'sha muallif. «Давлатёрбек» дostonи ҳақида // Тафаккур зиёси. 30-т. - Урганч, Хоразм, 2014. - Б. 3-8.

<sup>25</sup> Дурдыев Қ. Мағруппи ве онун «Дөвлетяр» дессаны // Дөвлетяр. - Ашгабат: Туркменистан, 1978. - Б. 3.

<sup>26</sup> <http://granat.wiki/enc/t/tyurkskie-literatury/>

qilingan<sup>27</sup>. Davlatyorbek dostoni bo'yicha 1969-yil Ashxabat universitetida K.Durdiev nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi<sup>28</sup>.

«Davlatyorbek» dostonining ko'plab variantlari Qo'ng'irotda mavjud bo'lishiga qaramay, ularning barchasi to'plab olinmagan. Lekin, o'tgan asrning 60-yillarida folklorshunoslar tomonidan jamlab, yozib olingan nusxalari dostonning mumtoz namunalari hisoblanadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasl **“Dostonning yaratilish va tarqalish tarixi”** deb nomlangan.

«Davlatyorbek» dostoni Oktyabr to'ntarishi davrigacha xalq orasida keng tanilgan asar bo'lgan, shoirlar va qissaxonlar tomonidan sevib ijro etilgan. Bu doston o'zining yaratilishi jihatidan kenja dostonlar qatoriga kirsam ham, bizga uning bir nechta variantlari yetib kelgan. Qo'ng'irotlik botir, chavandoz, shoir va sozanda Davlatyorbek haqidagi «Davlatyorbek» dostonini qoraqalpoq baxshilari Qorajon baxshi, Musa baxshi, Janabay baxshi, O'rinbay baxshi, Norboy Koshekenov va boshqa baxshilar, shuningdek, Abdimurat jirov ham ijro etgan. 1960-yillari Qo'ng'irot tumanida o'tkazilgan folklor ekspeditsiyasi davomida Qo'ng'irotda yashovchi Eshmurat ismli kishidan dostonning qo'lyozma nusxasi olingan<sup>29</sup>.

Dostonning o'zbek va turkman versiyalari haqida xorazmlik professor S.Ro'zimboyev «Mag'rupiyning «Davlatyorbek» dostoni xalq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlardan paydo bo'lgan»<sup>30</sup>, deb ko'rsatgan bo'lsa, yosh olim Sh.Rahimova bu dostonning ko'p variantlari savodli shoirlar, baxshilar va kotiblar tomonidan qayta ijro etilganini bildiradi<sup>31</sup>. Turkman olimlari «Davlatyorbek» dostonini Mag'rupiyga tegishli deb yozsa<sup>32</sup>, professor Q. Maqsetov bu fikrga qarshi chiqib, doston asosi Davlatyorbekning o'zi tomonidan yaratilgan, deb xulosa qiladi. Bunga sabab sifatida doston qo'ng'irotlik o'zbeklar orasida shakllanganligini va uning o'zi botir bo'lishi bilan birga savodli shoir tabiatiga ega ekanligini ta'kidlaydi<sup>33</sup>.

«Davlatyorbek» dostoni bo'yicha qoraqalpoq olimlaridan prof. Q.Maqsetov ma'lumotlar to'plagan va chop ettirgan. Q.Maqsetov, R.Maqsetovalarning «Davlatyorbek» dostonini aytgan baxshi» maqolasida keltirishicha: *«XIX asrda Qo'ng'irot kotiblari «Davlatyorbek» dostonini ko'chirib yozish bilan faol shug'ullangan va shu holda uning keng tarqalishiga imkoniyat yaratgan. Ko'pgina ma'lumotlarga qaraganda, XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan Abdulla Bashmaq, Domulla Jabbarberganlar «Davlatyorbek» dostoni*

<sup>27</sup> Қараң: Мағрупи. Дөвлетяр: дессандан бөлөклөр / Чапа таярлан Н.Хожаев. – Ашхабад, ТДН, 1943. – 44 б.; Гурбаната Мағрупи. Дөвлетяр. – Ашгабат, 1971. – 119 с.; Гурбаналы Мағрупи. Дөвлетяр: дессан (нашрга тайёрловчи: К.Дурдиев) – Ашгабат: Туркменистан, 1978. – 180 б.

<sup>28</sup> Дурдыев К. Историко-героический эпос Гурбанали Мағрупи «Даулетярбек»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1969. – 22 с.

<sup>29</sup> Мақсетов Қ. Дәўлетярбек // Әмиўдәрья. – Нөкис, 1970. - №7. – Б. 32-33.

<sup>30</sup> «Ошиқнома». Хоразм дөстөнләри. 7-китоб. – Урганч: УрДУ, 2018. – Б. 4.

<sup>31</sup> Рахимова Ш. Давлатёрбек дөстөннинг тарихий асосләри // Хоразм Мамун академияси Ахборотномаси. – Хива, 2017. - №3. – Б. 82.

<sup>32</sup> Мередов А., Ахалы С. Туркмен классыкы әдебиятының сөзлуги. – Ашгабат: Туркменистан, 1988; Дурдыев К. Мағрупи ве онуң “Дөвлетяр” дөссаны / Дөвлетяр. – Ашгабат: Туркменистан, 1978. – Б. 3-27.

<sup>33</sup> Мақсетов Қ. Дәўлетярбек // Очерки по истории каракалпакского фольклора. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 91-94.

*qo'lyozmalarining keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan. Mana shunday qilib, «Davlatyorbek» dostoni yozma va og'zaki tarzda faqat qo'ng'irotliklarga ma'lum bo'lib qolmasdan, uning chekka-chekkalarigacha tarala boshlagan. Doston o'zining dastlabgi paydo bo'lgan makoni Qo'ng'irotdan turkman orasiga, butun Xorazmga, Manqishloqqa tarqalgan. «Davlatyorbek» dostoni ham millatlar orasida variantlashuv jarayonini boshidan kechirgan»<sup>34</sup>.*

Dostonning tili qo'ng'irotlik qoraqalpoqlar tiliga xos. Xorazmda va turkmanlar orasida dostonning tub nusxasiga qayta ishlov berib, ko'proq nasrga o'rin ajratib, sujetlar qatorini ko'paytirgan. Bu haqda Sh.Raximova dissertatsiya avtoreferatida o'z fikrini keltiradi: «Xorazm hududida XIX asrga kelib qissaxolik rivojlangan. Qissalarning deyarli barchasi savodli kotiblar, baxshilar, shoirlar tomonidan yozishga ko'chirilgan dostonlar bo'lgan. «Davlatyorbek» dostonining turkmanlar orasida tarqalishi ham qissaxonlik an'anasi doirasida yuz bergan»<sup>35</sup>, - deydi unda. Mazmuni jihatidan olib qaraganda o'zbek va turkman versiyalari tub nusxaga qaraganda ancha boyitilgan. Bu albatta savodli shoirlar, baxshilar, kotiblarning xizmati sanaladi. Shunga qaramay, dostonning o'zbek va turkman versiyalarida tub nusxadagi qoraqalpoqcha so'zlar ba'zi o'rinlarida saqlanib qolgan. «Oshiqnoma» to'plamining 7-kitobida bunday so'zlar alohida ajratilib ketilgan. Masalan: Timtirs - jimjit. Hamma e'tibor bilan qarab turar erdilar, odamlar jim-jit bo'lib, oldinga intilib, qalqib borur erdilar<sup>36</sup>. G'ochchoq - jasur. Ammo shuncha g'ochchoq yigitlar turganda qochib qutilib bilurmi erdi<sup>37</sup>.

«Davlatyorbek» dostoni, Q.Maqsatovning fikricha, Berdaq baxshi tomonidan qayta ishlangan bo'lishi kerak, u Berdaqning qizi Hurlimanga, Hurlimandan Qorajon baxshiga meros bo'lib qolgan. «Qorajon baxshining aytishiga qaraganda, - deb keltiradi Q.Maqsatov doston haqida fikr yuritir ekan, - Berdaq baxshi repertuarida «Davlatyorbek» dostoni ahamiyatli o'rin tutgan...<sup>38</sup>.

Keyingi tadqiqotlar natijasi dostonning muallifi Davlatyorbekning o'zi ekanligini ko'rsatmoqda. Bunga sabab, uning Abulg'ozii, «Turkman yurti», «Do'stlar», «Zamon», «Qo'ng'irot afsonasi» kabi besh qo'shig'ining yozma nusxalari topilganligi<sup>39</sup>. Bu she'rlarning mazmuni Davlatyorbekning hayotini yoritadi:

*Ata yurtim balgalidur,  
Anamniñ yurti jawingir,  
Qaňlı quda-qarindashdur,*

<sup>34</sup> Maqsatov K., Maqsatova P. «Dəŷletyarbek» dostonining aytqan baqsi // Erkin Qaraqalpaqstan. 25-may. – Nəkis, 2000. - №62 (17344).

<sup>35</sup> Raximova Sh. «Davlatyorbek» dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi: Filol. fan. fals. d-ri. (PhD). ... dis. avtorref. – Toshkent, 2020. – B. 14.

<sup>36</sup> «Oshiqnoma». Xorazm dostonlari. 7-kitob. – Urganç: UrDU, 2018. – B. 214.

<sup>37</sup> O'sha manba. – B. 218.

<sup>38</sup> Maqsatov K., Maqsatova P. «Dəŷletyarbek» dostonining aytqan baqsi // Erkin Qaraqalpaqstan. 25-may. – Nəkis, 2000. - №62 (17344).

<sup>39</sup> Qoňyratly J.Şamuratov özine Qoňyrat qalasy turғыny Otepbergen Omar ulы (1932-2002)nyñ usy bes qosyqty tapсыrganlyғыn «Dəŷletyarbek» kytabynda keltirip otken.

*Haslimiz Arallı doslar*<sup>40</sup>.

(Ota yurtim bolg'alidir,  
Onamning yurti yoving'ir,  
Qangli quda-qarinoshdir,

Aslimiz Orollik do'stlar), - deydi «Do'stlar» she'rida. Darhaqiqat, Davlatyorbek Qo'ng'irot elining bolg'ali urug'idan ekanligi dostonida keltirilgan.

Doston sujeti XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi qoraqalpoq shoirlariga ma'lum bo'lgan bo'lishi kerak, chunki ularning asarlarida Davlatyorbek va uning tulpori Sarqush tez-tez tilga olinadi. Taniqli filolog olim, Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati Qirqboy Bayniyazov «Sovet Qoraqalpog'istoni» gazetasining 1967-yilgi avgust oyi sonida e'lon qilingan «Xorazmda esgan do'stlik shamoli» maqolasida Kunxo'ja Ibrohim o'g'li bilan Ayapbergan Musayevgacha qoraqalpoq shoirlari Davlatyorbekni ustoz sifatida tilga olishini aytadi va Kunxo'janing she'rini misol sifatida keltiradi<sup>41</sup>. Shuningdek, olim mana shu maqolasida: «Davlatyorbek degan shoir kim? Bu savolga javobni Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, Qulmurat, Nurlibay, Ayapbergan va boshqa shoirlarning asarlaridan izlab topish mumkin. Sababi ularning ijodiyotida Davlatyorbek Xiva xonlari tomonidan quvg'in qilingan, o'z elidan ajralgan kishi sifatida gavdalanadi.

Yuqoridagi «Davlatyorbek» dostonining muallifi Davlatyorbekning o'zi<sup>42</sup> degan prof. Q.Maqsatovning fikri qiziqish uyg'otishi tabiiy. Dostonni tahlil qiladigan bo'lsak, undagi she'rlar ko'pincha didaktik mazmun asosiga qurilgan bo'lib, shoirning barcha she'rlarini to'plab, doston sifatida birlashtirgan. Bizning nazarimizda «Davlatyorbek» dostonining yaratilishi birinchi navbatda shoir, sozanda va botir Davlatyorbekning o'z ismi bilan bog'liq ekanligini anglatadi. «Davlatyorbek» dostonining boshqa xalqlarda uchraydigan barcha versiyalari ilk bor Davlatyorbekning o'zi tomonidan yaratilgan va Qo'ng'irot versiyasi asosida paydo bo'lgan. Sababi, birinchidan, tili jihatidan qaraganda asar qoraqalpoq xalq dostoni ekanligi dalillansa, ikkinchidan, dostonidagi voqealarning va obrazlarning tarixiy haqiqatga mos kelishi va dostonidagi yersuv atamalari doston yaratilgan muhitdan darak beradi.

Ikkinchi bob «**Davlatyorbek» dostonining versiya va variantlari tipologiyasi hamda obrazlar tizimi**» deb nomlanadi. Mazkur bobning birinchi fasli **dostonning versiya va variantlari tipologiyasi** masalasiga bag'ishlangan.

XVIII asrda hozirgi Qo'ng'irot tumanida yaratilgan «Davlatyorbek» dostonining O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi kutubxonasida to'rt varianti saqlanadi. Ular:

<sup>40</sup> Шамуратов Ж. Дəўлетярбек. – Маңғыт: Тағаққийот ко'згуси, 2023. – Б. 18.

<sup>41</sup> Байниязов Қ. Хорезмде ескен дослық самалы // Совет Қарақалпақстаны. 29-август. – Нөкис, 1967. - № 171.

<sup>42</sup> Мақсетов Қ. Дəўлетярбек // Очерки по истории каракалпакского фольклора. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 91-94.

1. 1939-yilda (birinchi marta) yosh folklorchilar Sh.Xojaniyazov va S.Mavlenovlarning Qorajon baxshi Qabulovdan (1884-1966) yozib olingan varianti<sup>43</sup>.

2. 1960-yilda Qo'ng'irot tumanida o'tkazilgan folklor ekspeditsiyasi davomida Sultanov Eshmurat degan kishidan olingan yozma variant<sup>44</sup>.

3. Professor Q. Maqsetov va J. Xoshniyazovning 1969-yilda Norboy Koshekenovdan yozib olingan variant.

4. 2006-yilda Q. Ibrayimov tomonidan Norboy Koshekenov variantining magnit lentasidan yozib olingan variant<sup>45</sup>.

«Davlatyorbek» dostonining Qorajon baxshi Qabulovdan 1930-yilda S.Mavlenov va Sh.Xo'janiyazovlar tomonidan yozib olingan varianti bilan Norboy baxshi Koshekenovdan 1969-yilda Q.Maqssetov va J.Xoshniyazovlar tomonidan yozib olingan variantlarining mazmuni, sujet tuzilishi bo'yicha tipologik o'xshashliklar va alohida o'ziga xosliklar mavjudligi kuzatiladi. Dostonning mumtoz namunalarini bizga yetkazgan baxshi, Norboy Koshekenov bo'ladi.

Doston voqealari barcha qoraqalpoqcha variantlarda boshidan oxirigacha nasr va nazm aralash tarzda taqdim etiladi. Qorajon baxshi va Norboy baxshi variantlarida dostonning boshlanishi Qo'ng'irot diyorida Davlatyorbek ismli bir bahodir yigit bo'lgani haqida so'z yuritish bilan boshlanadi. Qorajon baxshi variantida Davlatyorbekning qiyot urug'idan chiqqanligi, otasi 7 yoshida vafot etishi, yetim qolishi va singlisi uzatilishi, qaliniga bir biya berilishi tasvirlanadi.

Qo'lyozma variantida Davlatyorbek kimning farzandi ekani haqida so'z yuritilmaydi. Akasi Oltinbekning xon tomonidan o'ldirilishi ham bu variantda yoritilmagan (va barcha variant hamda versiyalarda ham bu sujetlar yo'q). Bu ikki variantning boshlang'ich sujetlari Norboy baxshi variantidan ancha uzoq.

Dostonning qoraqalpoqcha hamma variantlarida Davlatyorbek chavandoz, shoir va sozanda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Uch variantda ham Davlatyorbek ot uchun Xiva xoni tomonidan quvg'inga uchraganligi va shu sababli turkman eliga chiqib ketganligi, u tomonda otasining do'sti Itolmasning o'g'li Mamedjon sardor bilan tanishib, u bilan birga Qizilboshlar askarlariga qarshi jang o'tkazishi, jangda asr tushishi, zindonda yotishi, tush ko'rishi, Qizilboshlar podshohining amri bilan zindondan chiqarilishi, saroy shoirlari bilan aytishuvi, g'olib bo'lishi va elga qaytishi kabi sujetlar deyarli bir xil davom etadi.

«Davlatyorbek» dostonining milliy versiyasining uslubi, she'r tuzilishi, nasriy bayon etilishi Xorazm o'zbeklari va turkmanlar orasida tarqalgan nusxalar bilan o'xshashdir. Biroq, sujetlari bir-biridan farqlanadi. Ayrim epizodlarda va ba'zi she'riy parchalarida o'xshashlik kuzatiladi. Dostonda she'riy shaklda aytiladigan monologlar ko'p uchraydi. Dostonning tili Qo'ng'irot lahjasiga xos.

<sup>43</sup> ӨзИА Қарақалпақстан филиалының кітапханасы қолжазбалар қоры. Инв. №172957

<sup>44</sup> ӨзИА Қарақалпақстан филиалының кітапханасы қолжазбалар қоры. Араб шрифтиндегі түп нұсхасы Р-П. инв. 1186. Латын хәрибине көшірмеси Р-11. инв. 1111.

<sup>45</sup> ӨзИА Қарақалпақстан филиалының кітапханасы қолжазбалар қоры. Инв. №175878

Dostonning o'zbekcha va turkmancha versiyalarining mazmuni, obrazlar tizimi, joy nomlari va sujetlari bir xil. Qoraqalpoqcha variantlariga qaraganda hajmi kattaroq va batafsil bayon etilgan. Doston kompozitsiyasi epos an'analariga mos ravishda yaratilgan. Dostonning kompozitsion tuzilishi qahramonlik va ijtimoiy-turmush masalalariga bag'ishlangan eposlarning kompozitsion tuzilishlari bilan taqqoslaganda ba'zi o'xshashliklar va farqlar bilan xarakterlanadi. Masalan, qahramonlar otlarining tulpor bo'lib, ot poygasida g'alaba qozonishi epizodi ko'p dostonlarda uchrasa, qahramonlarning aka-singil bo'lib tug'ilishi "Alpomish", "Shaxriyor" "Yer Shora" dostonlarida, qahramonning yonida unga o'xshash mard, botir 40 yigitning bo'lishi "Qoblan", "Go'ro'g'li" dostonlarida bor. «Davlatyorbek» dostonining milliy versiyasining stili, she'r tuzilishi, nasriy yo'lda bayonlanishi Xorazmlik o'zbeklar va turkmanlar orasida tarqalgan versiyalar bilan o'xshash.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **«Dostondagi tarixiy qahramonlar obrazining yaratilishi»** deb nomlangan.

«Davlatyorbek» dostoni tarixiy doston bo'lib, boshqa asarlardan farqi tarixiy voqealarning aniq ko'rsatilishi va tarixiy davrning aniqligi bilan bog'liqdir. Bu farq dostonning tarixiylikini birinchi navbatda o'rganishga imkon beradi. Tarixiylik masalasini genetik va tipologik masalalar bilan bog'lagan holda dostonning paydo bo'lish sabablarini, shartlarini, uning har xil tarixiy-ijtimoiy sharoitlar bilan mosligini va poetik rivojlanish tarixining to'liq ko'rinishini anglash mumkin.

«Davlatyorbek» dostoniga ta'sir etgan asosiy tarixiy voqealar XVIII asrdagi Xiva xonligi, Orol (Qo'ng'iroq) xonligi (mamlakati), turkmanlar elining va Eron xonligi ichki siyosiy holatlari va ularning o'zaro aloqalariga bag'ishlangan. Bu voqealarda Xiva xonligining olib borgan siyosatiga qarshi Orol xonligidagi xalqning norozilik harakatlari va turkman elining Safaviylarga qarshi harbiy qarshiliklari turli darajalarda aks ettirilgan.

Dostondagi asosiy qahramonlarning ko'pchiligi tarixiy shaxslar bo'lib, ularning hayot kechirgan davri, markazi, faoliyati va lavozimlari tarixiy va epik moslikni ko'rsatadi. Dostonning barqaror sujet asosi uning aniq tarixiy haqiqatdan kelib chiqishini namoyon etadi. Ya'ni, dostonda boshqa ko'plab qahramonlik epik asarlardagi kabi anoxronizm juda kam uchraydi.

Dostondagi tarixiy shaxs obraziga taalluqli ma'lumotlar «Firdavs ul-iqbol» tarixiy xronikasida ham keltirilgan. XVIII asrdagi Xorazmda bo'lib o'tgan murakkab tarixiy konfliktlar Davlatyorbek kabi xalq qahramonlarini hurmat qilishni talab qilgan. Dostondagi voqealar tarixiy voqealarga mos keladi. «Firdavs ul-iqbol» tarixiy asarida Davlatyorbekning o'ldirilishi Xivaning arig'ini qazdirayotgan davrga to'g'ri keladi. Dostonda Davlatyorbekning xon amaldorlarini ot uchun o'ldirgani aytiladi, ammo Xongeldi inoqning buyrug'i bilan o'ldirgani aytilmagan va dostonda uning xon tomonidan qatl qilinganligi haqida ham gap yo'q, umuman qaysi versiyasida bo'lmasin Davlatyorbekning vafoti tilga olinmaydi.

Dostonning qoraqalpoqcha variantlari Xorazm va turkman versiyalari bilan qiyoslaganda asl nusxaliligini saqlagan bo'lsa-da, bunda ham epik ranglar

berilgan. Masalan, xon vakilini ot uchun o'ldirish sujeti «Yer Shora» dostonidagi voqealarga yaqin keladi<sup>46</sup>.

«Davlatyorbek» dostonining Norboy baxshi variantida rafiqasi Sarvi-Qoramondan Allayor va Xudoyor nomli ikki o'g'il bo'lganligi aytiladi. Bu obrazlar ham haqiqatga mos keladi.

«Firdavs ul-iqbol»da bir joyda Davlatyorbekning o'g'li Xudoyor haqida ma'lumot beriladi: «... *Alar Husayn biy va Bobobek va Xudoyor ibn Davlatyorni bir bo'lak cherik bila aning kishisig'a mas'ul qilib yubordi. Alar hamul yil hutda ramazon ul-muborakning yigirma to'rtinchi kechasi (Hijriy 1215 jil 24 ramazan /1801 jill 9 fevral.) dakim, chahorshanba tuni erdi, Manqitg'a kirib, O'rozali so'poqning manzilig'a nuzul qildilar*»<sup>47</sup>.

Dostonning qoraqalpoqcha Norboy baxshi variantida Eron shohi Ibrohim xon deb ko'rsatiladi. Og'a Muhammad xon ham, Ibrohim xon ham bir davrda yashagan tarixiy shaxslardir. Ibrohim xonning to'liq ismi Muhammad Ibrohimqulixon Afshor Kirklu fors harbiy va davlat arbobi bo'lib, u mashhur Eron sarkardasi va bosqinchi Nodir shohning ukasi. 1736-1768-yillarda Ozarbayjon hokimi bo'lgan<sup>48</sup>.

Dostonda XVIII asrdagi Qo'ng'irotda diyorida siymolar va geografik o'rinlar Xo'jalar eli bo'lgan – Xo'jayli, Said ota avlodlari, Shayx Jalil bobo, Ubbi Sultan – Hakim otaning o'g'li Hubbi xoja nazarda tutilib aytilgan. Qo'ng'irotda ulug' pirlar, ulamolar yotgan makon. Hakim ota, Said ata, Buvraxon ota, payg'ambar qizi va h.k. qabristonlar o'rta asrlardan buyon muqaddas joylar hisoblanadi. Umuman olganda, dostonidagi voqealar, shaxslar, geografik joy nomlari dostonning Qo'ng'irotda diyorida dunyoga kelganligini to'la isbotlaydi va tarixiy manbalar bilan ham tasdiqlandi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli «**Dostonda tulpor ot obrazining tasvirlanishi**» deb ataladi.

«Davlatyorbek» dostonida alohida e'tibor bilan tasvirlanadigan obrazlardan biri – Sarqush ot obrazidir.

Turkiy xalq epik asarlarida ot tasvirlanganda uning quyidagi sifatlariga e'tibor qaratiladi:

1. O'ta tezkorligi, poygalarida doim birinchi bo'lib yetib kelishi;
2. Uzoq yo'llarga charchamay yetib borishi;
3. Qahramonning tuyg'ularini sezib, dushmanlarning harakatlarini anglab yetishi;
4. Qisilgan paytlarda «tilga kirish» orqali qahramonga maslahat va yordam berishi va hokazo.

Bu sifatlarning barchasi Sarqushda topiladi va dostonida ot obraziga alohida e'tibor beriladi. «Davlatyorbek» dostonida Sarqush ot nomi 13 marta tilga olinadi va 2 marta alohida tasvirlanadi. Bularning barchasida qahramonning tulporiga bo'lgan cheksiz muhabbati ko'rinadi. Davlatyorbek Sarqush ismini

<sup>46</sup> «Ер Шора». Каракалпак фольклоры. Көптомлык. 19-т. – Нөкис: Илим, 2010.

<sup>47</sup> Шермухаммад Авазбий Мироб ўгли Мунис, Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огахий. Асарлар. 2-жилд. 1-китоб. Фирдавс-ул-икбол (бахт-саодат жаннати). – Тошкент, 2019. – 272 б.

<sup>48</sup> Бакиханов А. Гюлистан-и Ирам. – Баку: ЭЛМ, 1991. – С. 304.

